

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN`AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI”

KAFEDRASI IV BOSQICH T GURUH TALABASI

Sharipova Firuza Saloxitdinovnaning

**“Umumta'lim maktablarining rang-tasvir mashg'ulotlarida
manzara chizishga o'rgatish”** mavzusidagi
5140700- “Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta'lim yo`nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o'qituvchi Tog'ayev K.

Navoiy-2014

MUNDARIJA

KIRISH:	2
I–BOB TASVIRIY SAN`AT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA	8
1.1. Tasviriy san`atning tarixi va rivojlanishi.....	9
1.2. Mamlakatimizda tasviriy san`atning o`qitilishi.....	10
II–BOB. Umumta`lim maktablarining rang tasvir mashg`ulotlarida manzara ishlashga o`rgatish metodikasi haqida umumiy tushuncha.	14
2.1. Tasviriy san`atning tur va janrlari.....	23
2.2. Manzara ishlash jarayonida perspektiva qonuniyatining ahamiyati.....	44
2.3. Umumta`lim maktablarida manzara ishlash metodikasi.....	49
Umumiy xulosa.....	52
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	56

KIRISH.

1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish¹ lozimligini qayd etadi.

Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o'rganishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqealarni, odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat hodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaganlar.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq estetik va badiiy tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj tamoyillariga asoslanmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan. Shu jihatdan olganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tasviriy san'atdan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirish hamda fanni o'qitishni modernizatsiyalash o'zining ko'p qirrali maqsad-vazifasi bilan ajralib turadi va ta'lim tizimi oldiga bir qator vazifalarni ko'ndalang qilib quyadi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom

Karimov ta'kidlaganidek: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir»

Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat suverenligini qo'lga kiritgan birinchi kunlaridanoq uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy modelni» hayotga tadbqiq qilishga qaratildi. Jamiyatimizdagi fuqarolar tafakkurini yangilash, milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali, o'quvchilarning iste'dodlari, qobiliyatlarini tadqiq etish, estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish davlat umummilliy siyosati darajasidagi masalalardan biri sifatida belgilab berilishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»², – deb alohida ta'kidlaydi.

Tasviriy san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim fanlari ichida ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobiy hal etishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, aynan tasviriy san'at darslarida san'at va san'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy «tili»ni o'rganib borish orqali o'quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morlikdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, anglash, ularni baholash, qadrlash va

muhofaza qilishni o`rganib boradilar.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir.

Prezidentimiz I. A. Karimovning "... biz o`z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma`naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o`z hissamizni qo`shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilm-u fani va ma`daniyatining yuksak cho`qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo`lishimiz darkor»<sup>3</sup> – deb aytgan fikrlari o`rinli.

Yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy san`at fani alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda tasviriy san`at asarlari kishilarning his tuyg`ulariga kuchli ta`sir ko`rsatish imkoniyatiga ham egadir. Kishilar tasviriy san`at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go`zallikni ko`rish orqali o`z hayotlariga ana shunday go`zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko`rib esa ularga o`xshashga intiladilar. San`at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko`rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo`lishga intiladilar.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san`at asarlarini tomosha qilganda, o`sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar hayoti, ularning kiyimlari, urf-odatlari bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo`ladilar.

Hozirgi vaqtda maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarda borliqni faqat ijodiy o`zlashtirishga bo`lgan ehtiyoj va qobiliyatini shakllantirishgagina eraas, balki go`zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat`i nazar, go`zallik va nafislikni ko`ra olish va tushuna bilishi kerak. O`quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o`qituvchi ularga tabiatdagi go`zalliklarni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko`rsatadi. Bolalarga

quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari, so'z bilan tasvirlab bo'lmaydigan rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida qoladi. Manzara, daraxtlar, barglar va gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek, ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holati, rangi va och-to'qlik nisbatlarini diqqat bilan o'rganadilar.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlari va tashqi ko'rinish jihatdan klassifikatsiyalashni anglaymiz. So'nggi paytlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarning 90% idan ortiqrog'ini ko'z bilan ko'rish orqali oladilar. Bu kishilar hayotida ko'zning ahamiyati beqiyos katta ekanligini ko'rsatib turibdi va u ko'z faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabda ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at predmeti ko'p imkoniyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tasviriy san'atning kishilar hayotidagi o'rni yanada oydinlashadi.

Shunday qilib, maktabda tasviriy san'atni o'qitish orqali bir qator ta'lim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarak-atrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Tasviriy san'at va badiiy mehnat ikkita predmetni o'zida mujassamlashtirganligi sababli har biri haqida alohida to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rgatishni, uning hayotda kishilarga qanday foyda keltirishini atroflicha ko'rsatib berishni maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchi suhbat jarayonida rasm chizishni bilish har qanday

mutaxassislikda qo‘l kelishini tushuntirib beradi. Buni u hayotdan olingan misollar, madaniyat arboblarning fikrlari asosida bayon qiladi.

Rassomlar o‘z asarlarida hayotni qanday ko‘rsalar o‘shanday emas, balki undagi alohida e‘tiborga molik, xarakterli ko‘rinishlarni tanlab oladilar, e‘tiborsiz, ikkinchi darajali ko‘rinishlarni tushirib qoldiradilar, eng muhimlarini esa bo‘rttirib ko‘rsatadilar. Tanlash va bo‘rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta’sir ko‘rsatishiga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan ijodkordir. U o‘z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o‘zi o‘ylab topadi, tasavvur etadi va to‘qiydi.

Demak, san’at asarlari o‘z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g‘oyalarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Shu bilan birga bunday asarlar kishilar ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatib, ular ma’naviy olamini, bilim va tajribasini kengaytiradi.

Malakviy bitiruv ishining maqsadi:

-Men o‘z malakaviy bitiruv ishimda umumta’lim maktablarining rang tasvir mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni manzara chizishga o‘rgatish metodikasi haqida ma’lumot berishni;

-manzara janrida ijod qilishning asosiy qonuniyatlari va bosqichlari haqida ma’lumot berishni;

-hamda rang tasvirda manzara ishlash metodlariga doir misollar keltirishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘yganman.

Malakaviy ishining vazifalari:

Men bajarayotgan ushbu malakaviy bitiruv ishimning vazifasi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

-umumta'lim maktablarida tashkil etilayotgan rang tasvir mashg'ulotlarida manzara chizishni qulay usullar bilan o'rgatish metodlari orqali bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish;

-rang tasvir mashg'ulotlarida yangi innovatsion va pedagogi texnologiya usullaridan foydalangan holda natijali bilim berish.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi:

Kirish,ikki bob, umumiy xulosalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib,sahifadan tashkil topgan.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

-Rang tasvir mashg'ulotlarida manzara chizishning asosiy qonuniyatlari, ishlash usullari hamda bu janrni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy va amaliy metodlar ishlab chiqildi;

-umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan rang tasvir mashg'ulotlarining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

Himoyaga olib chiqiladigan g'oyalar:

1.O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan“Tasviriy san'at” darslarini zamonaviy loyihalash jamiyatning ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan ijtimioy buyurtmasi ekanligi;

2.O'rganilayotgan muammoga mos“Tasviriy san'at”o'quv fani dasturining pedagogik tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash;

3.”Tasviriy san'at” o'quv fanini modifikatsiyalashtirish;

4.Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan“Tasviriy san'at”darslarini zamonaviy loyihalash tizimi, texnologiyasi, innovatsion metodlari, optimal vositalari;

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan “Tasviriy san'at” darslarini zamonaviy loyihalash tizimi, mazmuni, jarayoni va texnologiyalarini rivojlantirish samaradorligi.

Malakaviy bitiruv ishimizni yozishda quyidagi:

-analitik tahlil,qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv,tajriba sinov ,tasviriy san'at janrlaridan unuli foydalandik.

I-BOB. Tasviriy san'at haqida umumiy tushuncha.

Ma'lumki, san'atning turlari nihotda ko'p bo'lib, ular adabiyot, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, amaliy-bezak, sirk, televideniye, tasviriy san'at hisoblanadilar.

“Tasviriy” atamasi “tasvirilash” so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, buyoq, tosh, gips, yog'och shuningdek, boshqa badiiy va tashlandiq materiallar yordamida har xil obrazlarni va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi.

Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, halqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va xayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar. qadimdan kishilar san'at, tabiat xodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar.

SHu qatori tasviriy san'at asarlari kishilarga katta kuch bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotiga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonona harakatlarni ko'rib ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlaridagi xunuk voqealar, harakatlarni ko'rish orqali ulardan jirkanadilar.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi harakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, kerakmas ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo'rttirib ko'rsatadilar.

1.1 Tasviriyy san`atning paydo bo'lish tarixi hamda rivojlanishi haqida ma'lumot.

San`at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik xissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqib boshladi. Bu esa fan va san`at rivojida muxim ahamiyat kasb etdi. Professional san`at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San`at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, xukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xuli va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san`at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan xam insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-g'oyalarini aks ettiruvchi ko'zgu xamdir. Jaxon san'ati tarixini o'rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning xis-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish G'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish dyemakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi.

1.2 Mamlakatimizda tasviriy san`at fani o`qitilishining o`ziga xosligi.

Mamlakatimizda tasviriy san`at fanining o`qitilishida o`quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun auditoriya, mustaqil ta`lim mashg`ulotlari hamda ma`naviy- ma`rifiy mavzuga bog`liq holda mamlakatimizning san`at ko`rgazmalari zali ,muzeyi,galereyalariga ekskursiyalar tashkil qilish, ulardan unumli foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar, respublikamizning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy rivojlanish tamoyillari tasviriy san`at rivojiga hissa qo`shgan rassomlarning badiiy meroslari ,tasviriy va amaliy sa`atga oid traktlar, hikmatli hikoyalar, rivoyatlar ,afsonalar va maqollardan foydalanish, Respublikamizdagi mavjud san`at muzeylarida saqlanayotgan noyob durdonalarni o`rganish, o`tkazilayotgan“san`at bayrami”singari tadbirlarga milliy ruh kiritadi.

Maktabda tasviriy san`at darslarining maqsad va vazifalari.

Umumiy o`ra ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Tasviriy san`at o`quv predmeti har bir inson uchun zarur bulgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o`quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat`iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo`ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san`at asarlari bilan muzey, ko`rgaz- malar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. O`quvchilar o`zlarining kelajak hayotlarida ma`lum miqdorda rasm ishlashlariga to`g`ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar,dizaynerlar, me`morlar uchungina emas, u o`qituvchilar, injinerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Maktablar o`z nomiga ko`ra umumiy o`rta ta`lim mak- tablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlaridan umumiy, elementar bilim va ko`nikmalar berishni vazifa qilib qo`yadi. Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, umumiy o`rta ta`lim

maktablari rassomlarni tayorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug'ullanishni nazarda tutmaydi.

Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to'garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida hadda ziyod bolalarni qiynab qo'yadigan, ortiqcha zo'riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to'g'ri emas.

Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining vazifalari haqida to'xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin.

1. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug', soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish; san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2. Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari, ular borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo'llash.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlash-tirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiat-shunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa

derslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo`naltirilgan asosiy o`quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

- o`quvchilarning tabiat, san`at va hayotdagi go`zalliklarni idrok etishga o`rgatish;
- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go`zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;
- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish;
- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`z xarakteriga ko`ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his- tuyg`u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o`stirishda katta rol o`ynaydi. Dekrativ kompazitsiya darslarida o`quvchilar naqshlar, amaliy san`at buyumlaridagi go`zallikni his qiladilar va o`zlari ham shunday kompazitsiyalar tuzishga harakat qiladilar.

O`quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo`laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to`lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo`lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil pardozi, bahorgi va kuzgi manzaralarning chiroyi, majnuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarning kechki miltillab ko`rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday his tuyg`uning o`sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholashni malakalarining shakllanishiga olib keladi. O`qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolalarga ko`rsatish

orqali yosh barglarni rangi och-yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg'irdan so'ng o'simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo'ygandek ko'rinishi, ulardagi yomg'ir donalarining kumushdek yaltirrab ko'rinishini ta'kidlaydi.

Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg'sh ranglarining oltin tusga kirganligini, to'kilgan barglarining shildirab "gaplashishi" obrazli ko'rinishda ifodalanadi. milliy ruh kiritadi.



Tasviriy san'at fani o'qitilishida o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda quyidagilarga rioya qilish zarur:

- tasviriy san'atning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish;
- sharq musavvirlari yaratgan asarlarining xalq pedagogikasiga qo'shgan hissalarini yoritish;
- buyuk rassomlarimizning umumbashariy mulkka aylangan noyob asarlarini o'rganish;
- tasviriy san'at fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk olimlar hayotining ibratli tomonlarini ko'rsatish.

II–BOB. Umumta’lim maktablarining rang tasvir mashg’ulotlarida manzara ishlashga o’rgatish metodikasi haqida umumiy tushuncha.

Metodika,metod- aslida bilish, tadqiqot yo’li, ijodiy usul, pedagogik usul ma’nosini anglatadi.Pedagogikada o’qitish metodlari deganda,oquvchilarga badiiy ta’lim-tarbiya berish jarayonida bilim, mahorat, kasbiy malakalarni egallashda va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda dunyoqarashini o’stirishda o’qituvchilar qo’llaydigan turli usullar tushuniladi.



Shuningdek, o’qitish metodikasi deganda, ta’lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo’l va uslublar yig’indisi tushuniladi. Mashg’ulotni metodik jihatdan to’g’ri tashkil etish esa o’qituvchining o’z oldiga qo’ygan maqsadiga ham bog’liq. Shu bilan birga qisqa va oddiy yo’llar bilan, oddiydan – murakkabga boorish prinsipida ma’lum ketma-ketlikda erishish nazarda tutiladi. Boshqa charoq qilib aytgavda, o’qitish metodikasi to’g’ri tanlangandao’quvchilar ko’zda tutilgan o’quv materialini puxta o’zlashtiradilar va ularda o’zlashtirish darajasi bir qadar yuqori bo’ladi.

Metodika so’zining o’zi ikki xil bo’ladi: ular umumiy va xususiy metodika hisoblanadi.

Umumiy metodika maktabda olib boriladigan barcha ta’lim-tarbiya ishlariga;

Xususiyl metodika esa u yoki bu o`quv predmetiga nisbatan qo`llaniladi. Metodika, ko`pincha pedagogika, psixologiya va san`atshunoslik estetika sohasidagi nazariy xulosalarga tayanib ish ko`radi.

Pedagogik nazariyada uch xil metod bo`lib, asosan nutqiy, namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Bu metodlar o`z o`rnida mayda metodlarga ham bo`linadi. Masalan, nutqiy metod hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, kitob bilan ishlash v.b. shu kabi metodlardan tashkil topad

Ko`rgazmali metod esa ko`zatish, namoyish etish kabilardan, amaliy ish esa mashq, rasm ishlash, ijodiy ish, o`yin kabi metodlarga bo`linadi.

O`qituvchilar faoliyatida “uslub” degan so`z ham ishlatiladi. “o`qitish uslubi” deb biz o`qitish metodlarining ayrim qirralarini tushunamiz. “O`qitish uslublaridan” o`qitish metodi tashqil topadi. Masalan, “namoyish etish” metodi asosida o`qituvchi Mashg`ulot o`tkazganda, u ekranga san`at asarining tasvirini texnika vositasi orqali tushiradi. Bu jarayonda o`qitunchi suratdagi biron shaklni yirik qilib ko`rsatishi usul hisoblapadi. Shu o`rinda ekrandagi surat tasviri yuzasidan savol-jaiob o`tkazilganda ham bu yuqoridagi usulning davomi hisoblanadi.

O`qituvchi o`qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda u rangshunosliq perspektiva, yorug` soya, kompozitsiya qonunlari va ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuni hisobga olish lozimki, tasviriy san`atning u yoki bu to`rining nazariy asoslarini o`rgatganda yoki tasviriy san`atning u yoki bu faoliyat to`rini o`qitganda o`qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

O`qitish metodikasining tarixi juda o`zoqlarga ya`ni kishilar qachon bir-birlariga rasm chizishni o`rgata boshlagan paytlariga borib taqaladi. U kishilik jamiyatining taraqqiyoti davrida takomillashib borgan, davr o`tishi bilam o`qituvchilar, olimlar uning yangidan-yangi qirralarini ochganlar va u mutaxassislar orasida tarqalgan.



Shuni ham qayd qilish lozimki, shakllangan har bir metod shaklan bir xil bo'lsada, uni bir o'qitunchi, ikkinchi o'qituvchidan o'rganib, shundayligicha qo'llayvermaydi. Uni har (bir o'qituvchi o'z maktabidagi moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar, bolalarning bilim va malakalarining saviyasi, dars mavzusi uning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa shu kabilarni hisobga olishi lozim. Shunga ko'ra boshqa o'qituvchi qo'llayotgan va yaxshi samara berayotgan bir metod boshqa o'qituvchi faoliyatida yaxshi natija bermasligi ham mumkin.

Shuning uchun qo'llashga mo'ljallangan har bir metod pedagogik faoliyat davomida tajriba-sinovdan o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Sinov bir marta emas, bir necha marta o'tkazilishi lozim bo'ladi. Chunki, bir sinfga mo'ljallangan bir metodika boshqa vaqtda yuqorida qayd qilinganidek sharoitga qarab boshqa sinfda boshqacha natija berishi mumkin. Tanlangan va qo'llanib kelinayotgan har bir metod shaklan o'zgarmay qolsa ham, mazmunan o'zgarishi ham mumkin. O'qituvchining to'xtovsiz izlanishlari, tajribalari asosida uning yangidan-yangi qirralari ochilaveradi. Mutaxassislar orasida tasviriy san'atni o'qitish metodlariga turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh mutaxassislar o'qitish metodlari yagona tizim, yagona talablarga javob berishi lozim deb hisoblaydilar. Ularning fikrlariga qaraganda, har bir metod jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib bo'lgan, uni o'zgartirmasdan shundayligicha qo'llash lozim. Boshqa guruh, muta- xassislarining fikrlariga qaraganda

o`qitish metodining asosini har bir o`qituvchining shaxsiy ish tajribasi tashqil etishi kerak. Bizningcha, masalaga bunday yondoshish to`g`ri emas. Ta`lim-tarbiya sohasida o`qitish metodlari qotib qolmaydi, u doimo taraqqiy etadi. Bunda o`qituvchining tajribasi albatta, katta rol o`ynaydi. Shunday ekan, pedagogik amaliyotda sinfdagi shart-sharoitlarni hisobga olib, shakllangan metodika asosida ham, o`qituvchining shaxsiy tajribasi asosidan ham foydalanaverish lozim.

O`qituvchi o`qitish metodikasini ish jarayonida o`z-o`zidan egallayvermaydi. U ish jarayonida izlanishi, sinov ishlarini o`tkazishi, ko`p adabiyotlar o`qishi, ilg`or tajribalarni o`rganishi hamda ulardan tegishli xulosalar chiqarishi asosida paydo bo`ladi. Shuningdek u jamiyat taraqqiyoti davrida shakllangan o`qitish metodlarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil etishi va uni zamon ruhiga moslashtirgan holda qayta ishlashi asosida namoyon bo`ladi.

Tasviriy san`at o`qitish metodlari deganda o`qituvchining o`quvchilar bilan ishlash usullari natijasida o`quv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va o`zlashtirish darajasini oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir o`qitish metodlari o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilimlarining mazmuni (hajmi)ga monand tarzida ta`lim maqsadiga, o`quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga bog`liq. "Usul" iborasi pedagogik adabiyotlarida tez-tez uchraydi. O`qitish usuli – bu ta`lim-tarbiya alohida qismlari hisoblanadi, ularning yig`indisi o`qitish metodlariga kiradi.

Umumiy yo`nalishga qaratilgan ma`lum bir o`qitish metodlari va usullarining majmuasidan o`qitish tizimi tuziladi.

Tasviriy san`at o`qitish metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o`qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san`atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U tasviriy san`atni o`rgatish qonun qoidalarini ta`riflab beradi, kelajak avlodni tarbiyalashning zamonaviy metodlarini belgilaydi.

Amaliy metodika, ta'lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o'rganadi. Pedagogik mahorat ko'nikmalarini o'rganish uni egallashga qaratilgan ma'lum iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud bo'lishini ta'lab etadi, chunki metodika fani san'at pedagogikasining mashaqqatli murakkab va juda ma'suliyatli sohasidir.

Demak, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fani pedagogika ilmining o'quvchilarni tasviriy san'atga o'rgatish mazmuni, vazifalari va metodlarini o'qitishning mazmuni, vazifalarini va metodlarini aniqlovchi, ijodiy ishlardagi oqilona usullarini o'rganuvchi, ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali o'quv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yo'llarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Tasviriy san'at metodikasi metodika fanining boshqa sohalari kabi umumiy va xususiy turlarga ajratiladi.

Umumiy metodika -o'quv faning nazariy qismini asoslariga qarashli savollarni va ko'pchilik fanlarga tegishli o'qitish usul va uslublarini qo'llanishlarini ko'rib chiqadi. Bular quyidagilar :

- tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalari :
- tasviriy san'at fani dasturlarining tuzilishi va mazmuni :
- o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini ishlab chiqish :
- ko'rgazmali metodik vositalarni tadqiq qilish va tanlash (o'quv ko'rgazmali qurollar va texnik vositalari) :
- tasviriy san'atning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (adabiyot, musiqa, biologiya, tarix) :
- tushunchalarni, iboralarni ta'riflash va boshqalar.

Xususiy metodika –biron-bir o'quv fanining o'qitish uslubi nazarda tutiladi .

- ko'rgazmali qurollardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi :
- amaliy va ijodiy ishlarning mazmunlari aniqlanadi va x.k.

Hozirgi kundagi rasm o'rgatish metodikasi birdaniga kelib, shakllangan emas, bunga qadar mazkur metodika shakllanishi va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Respublikamizda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasining

shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o`quv qo`llanmalarining ahamiyati juda katta o`rin tutadi. Badiiy pedagogika metodika sohasidagi so`ngi yutuqlari ko`rsatilgan va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish o`qitish san`atini egallashiga yordam berishni o`ziga asosiy maqsad qilib qo`ygan.

O`qituvchi tasviriy va amaliy san`at darslarining tashkilotchisi, rahbari va ilhomchisi.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan o`quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga dastur asosida o`qitiladigan tasviriy san`at mashg`ulotlari narsaning asliga qarab tasvir chizish; xotira va mavzu asosida tasvir chizish ; dekarativ amaliy san`at va haykaltaroshlik : San`atni idrok qilish kabi turlarda olib boriladi. O`qituvchi tasviriy san`at darslarida o`quvchilarni dars mavzusiga aktivlashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chiqish qoidalari tushuntirishi zarur. Ba`zida o`qituvchilar tasviriy san`at darslarini tashkil etish uchun o`quvchilarga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to`ldirish kabi vositalardan foydalaniladi.

O`quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy ko`nikmaga ega bo`ldilar, o`qituvchining vazifasi o`quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag`barlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarni o`z vaqtida ko`rsatish, ularni o`z kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qiladi.

Dars jarayonida har bir individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi yoshlar bilan ish olib boriladi. O`quvchilar orasida ko`rib turgan narsalarni to`g`ri tasvirlay oladigan xotira asosida qiynalmay rasm chizadiganlar bilan bir qatorda, oddiy tasvirga qarab nusxa ko`chirishga ham qiynaladiganlar uchraydi. Bu borada biz ba`zi o`quvchilarning ko`rish qobiliyatining sustligi, rang sezmasligi kabi boshqa hollarini hisobga olishimiz kerak.

O`quvchilarning qobiliyat va xususiyatlariga qarab guruhlariga bo`lib ta`lim berish metodiga o`z vaqtida rus pedagogi Ushinskiy ijobiy baho bergan edi.

G'`Sinf bolalarini bir birdan kuchli bo`lgan bunday guruhlariga bo`lib o`tkazish zarur emas".- deb ko`rsatilgan edi.G'

Guruhlariga bo`lib o`qitish shuning uchun qulayki, kuchli o`quvchilarga qo`shimcha topshiriqlar beriladi, ular o`zlariga berilgan topshiriqlarni qiynalmay bajarib turishadi. Bo`sh, qiynaladigan o`quvchilar esa o`quvchilardan va kuchli o`quvchisidan o`rganadi. Bunday o`quvchilar tasvir chizishda surunkasiga orqada qoladilar, natijada ular o`qishga qiziqmay qoladilar. Bu o`qish ulardan ko`proq aqliy kuch sarflashni talab qiladi. Shularni bartaraf qilish uchun sinfda olib boriladigan individual ishni ayrim o`quvchilar bilan olib boriladigan individual ish bilan qo`shib olib borish kerak.

“Kuchli” biladigan o`quvchilarga “kuchsiz” bilimli o`quvchilarni biriktirib qo`yish ham yaxshi natija beradi. O`quvchilarning tasviriyl faoliyatini aktivlashtirishda, ayrim o`quvchilar bilan yakka tartibda munosabatda bo`lish va unga pedagogik ta`sir o`tkazish ham katta ahamiyatga ega.

Ta`limni individuallashtirish masalasi hozirgi davrda pedagog va psixolog olimlar va metodistlarni qiziqtirmoqda. M.N. Skatin, N.N. Rostovsev, M.I.Mahmudov, V.S.Kuzin, B.P.Yusupov, S.S.Bulatov asarlarida bu masalalar yoritilgan. Sinfdagi bolalar haqidagi dastlabki ma`lumotlarga ega bo`lgandan keyin, o`qituvchi hamma bolalarning qobiliyat va malakalariga qarab quyidagi gruppalariga bo`ladilar :

Tasviriyl faoliyati yaxshi rivojlangan, kuzatuvchanligi, ijodiy tasavuri taraqqiyl qilgan, tasviriyl san`at materiallarini o`zlashtirgan yoki tez o`zlashtira oladigan o`quvchilar. Bu 3 toifa o`quvchilarning har biri bilan alohida ishlab, ularning barchasini darsga qiziqtirish uchun quyidagi usullardan foydalanishi maqul bo`lar edi.

Kuzatuvchanligi, ijodiy tassavuri o`rtacha rivojlangan tasviriyl san`at materiallarini o`qituvchi yordamida o`zlashtira oladigan o`quvchilar guruhi.

Kuzatish ko'nikmasi yaxshi rivojlanmagan, ijodiy tassavuri bo'lmagan, tasviriy san'at materiallarini o'kituvchilar yordamida kiyin uzlashtiradigan ukuvchilar.

Bunday dars utish bizning fikrimizcha o'quvchilarning aktivligini oshiradi.

O'quvchilar bilan individual ishlashning ahamiyati katta. bu metod yordamida qoloqlarsiz o'qitish darajasiga yetish mumkin. Bundan tashkari tasviriy san'at sinf xonalari yetarlicha yorug' bo'lishi kerak. Yorug'lik normal bo'lmagan joyda ko'rish sezgilariga zo'r berish zararlidir. Bunday xollarda o'quvchilarning tez charchashlari oqibatida darsga bo'lgan qiziqishlari sustlashishiga olib keladi.

XVII-XIX asrlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodlarini takomillashtirishda chet el pedagoglaridan Jon Lokq Jan Jak Russo. Iogani Genrix Pestalotstsi, Peter Shmidt, A.Sapojnikov, G.Gippius, N.Kramskoylar katta hissa qo'shgan bo'lsalar, XX asrda rus pedagog-olimlaridan ye.S.Kondaxchan, G.V.Labunsqaya, V.S.Ko'zin, ye.E. Rojkovalar,





O`zbekistonda tasviriy san`atni o`qitish metodikasini oyoqqa turg`azishda B.Oripov, Q.Qosimov, B. Azimovalarning xizmatlari katta bo`ldi.

2.1.TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI.

.Tasviriy san'atning uch turi mavjud:

1. Rangtasvir. 2. Haykaltaroshlik 3. Grafika.

Manzara va uni ishlash usullari haqida fikr yuritishdan oldin biz rangtasvir haqida aytib o'tsak. Albatta har bir tasviriy san'at soxasi bilan faoliyati bog'liq inson - hoh u rassom bo'lsin, hoh tasviriy san'at fani o'qituvchisi yoki shu soha bilan bog'liq bo'lgan xunarmand : barchasi birinchi o'rinda qalamtasvirni yaxshi bilgan holda rangtasvirga kirib boradi (rangtasvirga bog'liq sohalarda). Shu o'rinda rangtasvir o'zi nima-?, rangtasvirda qalam tasvirning o'ni qanday-? degan savollarga javob berib o'tamiz.

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

O'rta Osiyoda ranglar haqidagi talimot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, pannolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik xunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan bo'lishi kerak.

Ranglarni tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Mon Batista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning hususiyatlari haqida yozganlar.

Rang inson hayotida muhim ro'l o'ynaydi. U turli vaziyatlarda odamga har xil tasir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo'lgan «hira»-deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday hususiyatlarini hisobga olib,o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi malum. Ayniqsa,shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib,odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga

erishganlar. Shuning uchun tasviriyy sanatning juda ko'p turlari janrlarida rang ham, uni ishlata bilish ham juda katta ahamiyatga egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi malum xaqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvirda ishlashga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan malumki, ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, ko'k ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va ko'kni qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali esa zarg'aldoq, sariq va ko'kni qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyati: iliq va sovuq xususiyatlari bizga ma'lum. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq, zarg'aldoq va ularga yashil ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek bular barchasi axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir biridan faqat och to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora, qoraroq, juda qora, va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir biridan rang tusi bilan farq qiladi, ya'ni – qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo.

Ranglar yana och-to'qligi ya'ni och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq va to'yinganligi ya'ni yorqin, hiraligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini, bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va xodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari texnikasini bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirda ishlashning asosini tashkil etadi.

Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy etiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko‘rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq yaqinligiga qarab o‘zgarib ko‘rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko‘rinishiga ta’siridandir. Kog‘oz sathida ranglar munosabatlarini to‘g‘ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning xaqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb xisoblasak o‘rinlidir. Akvarel bo‘yog‘ida ishlash ham o‘z navbatida jiddiy o‘qib o‘rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg‘ulotdir. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o‘rganib borishni taqazo etadi.



Arxromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya’ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Quyosh spektorining barcha ranglari hamda ularning bir birlari bilan aralashtiruvidan hosil bo‘lgan hamma ranglar jumlasidandir. Shuningdek, oq rang ham xromatik ranglar jumlasiga kiradi.

Xromatik ranglar axromatik ranglardan farqli o'laroq, faqatgina yorug'lik kuchlari bilan emas, balki nomlari, tushlari jihatidan ham ajralib turadi. Masalan, sariq rang qizil ranglar ham yorug'lik kuchi bilan ham rangining tush bilan ham keskin farq qiladi. Har bir xromatik rang uchta xossaga ega. Ular rang tushiga, rang yorugligiga (bunda kam yoki ko'p yorqinlik ko'zda tutiladi), rang to'yinganligiga (bunda kam yoki ko'p yorqinlik kuzda tutiladi) ega bo'ladi. Xar bir xromatik rang ana shu uchta hossaga ko'ra bir birdan farqlanadi.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, xromatik ranglar bir biridan uchta asosiy xossasi-rang toni (rangning o'zi), rangni och-to'qligi va to'yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektorni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o'xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar hosil bo'ladi. Bu xosil bo'lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o'rtasida joylashtirib, spektor tutashtirilsa, halqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasidan qizil, qizg'ish zarg'aldoq, sariq, sarg'ish yashil, yashil tab zangori havorang, ko'kimtir havorang, ko'k, ko'kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil tushlari ko'rinadi.

Ranglar doirsida rang tushlari juda ko'p bo'lishi mumkin. Lekin ko'zlarimiz ularni 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Ranglarning doira bo'ylab joylashish tartibi muayyan saqlanadi. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish yashil (pistoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havorang, feruza, zangori, ko'k binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab – qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni cho'g'ni eslatadi, havorang, zangori, yashil ko'klar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farklanish nisbiy bo'lib, har qanday iliq ham o'ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo'lib ko'rinishi va aksincha, sovuq rang o'zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyilishi mumkin.

Kimyo fani bo'yoqlarning topilishiga, moddalarni kimyoviy usulda qo'shib, bo'yoqlarning retseplarini aniqlashga yordam beradi. Buyoqlar asosan ikki xil yo'l

bilan tayyorlanadi. Bo‘yoqlarning nomlari ko‘pincha, qazilmadan qazib olingan joyning nomi bilan ajralib kelinadi.

Masalan, bo‘yoqlardan neopolitan sarig‘ini olsak, bu sarg‘ish malla rang bo‘yoq Italiyaning Neapol shaxri atrofdagi tog‘lardan vulqon bilan otilib chiqqan moddadan tayyorlanadi. Xalilovka oxrasi – oltin tusli buyoq bo‘lib, Uralda Orenburg rayonida Xalilovka qishlog‘ida olinadi. Hind sarig‘i – to‘q sariq bo‘yoq, Hindistonning Bengaliya shtatida o‘sadigan hurmo daraxti yaprog‘idan tayyorlanadi. Yana ayrim yorqin qizil bo‘yoqlarni kichkina jonivorlardan – dub daraxtida yashovchi ko‘ng‘izcha (kattaligi 2-8mm), Shimoliy Amerikada yashovchi qizil chuvalchangdan tayyorlanadi.

Rang tusi ranglarning to‘lqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu hossasiga ko‘ra biz ko‘z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni ko‘ramiz hamda idrok qilamiz. Lekin rang tuslari ularga qo‘yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko‘pdir. Rang tusining to‘lqinlar uzunligi o‘zgarmaydi. Chunki oq rang qo‘shilganda, faqatgina rang yorqinligi o‘zgaradi va qaytarish koeffisienti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o‘lcham uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi. Rang tuslari sprektor ranglariga qanchalik yaqinlashsa, ularning yorqinligi shunchalik yaxshi bo‘ladi. Rangtasvir va rang munosabatlari haqida quyida kengroq fikr bildirishga harakat qilamiz

Rangtasvir texnikasini egallash.

O‘quvchilar birinchi bosqichdanoq akvarel texnikasida ishlashni o‘qituvchi rahbarligida boshlang‘ich yarimyillik davridayoq o‘rganishni boshlaydilar. Kasb-xunar kollejlari va oliygoh talabalri o‘quv dasturlarida talabalardan rangshunoslikni ilmiy negizlarini egallashni, rangtasvirda ishlatiladigan ashyolarning hususiyatlari va ularni samarali ishlatish yo‘llarini chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun o‘quv dasturlari amaliy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda nazariy bilimlarni, ijodiy imtixonlar vaqtida esa amaliy vazifalar ko‘rigidan tashqari, og‘zaki so‘rovni ham nazarda tutadi.

Rangtasvir nazariyasi va metodlarini o‘rganishda maqsad va vazifalarni oldinga qo‘yib, mukammal o‘rganib borish lozim. Talabalar auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari uyda ham bir qancha vazifalarni mustaqil bajarishlari lozim bo‘ladi.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashqil qiladi. Har qanday rangtasvir ishida, avvalo, uning rasmi ishlab olipadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o'rinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatdan turli-tuman bo'lib, ular moybo'yoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guagshli, pastelli bo'lishi mumkin.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud: 1. Dastgohli rangtasvir. 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir. 3. Miniatyura (mo'jaz) rangtasviri, 4. Dekorativ (bezak) rangtasvir. 5. Teatr-dekoratsiyasi (bezak) rangtasviri.

Dastgohli rang tasvir deyilganda, rassomlarning maxsus asbob-dastgoh. (molbert) yordamida ishlaydigan suvratlari tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo'lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga bo'yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli Rangtasvirda ko'pincha moyli va akvarel bo'yoqlar qo'llaniladi.

Monumental rang tasvir atamasi monumental (mahobatli), ya'ni katta o'lchovdagi rangtasvir ma'nosini anglatadi va bu turdagi asarlar ko'pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi.

Monumental rangtasvir asarlarining freska , mozaika, vitraj, panno kabi turlari mavjud.

Freskalar asosan bino devorlarining o'ziga, shuningdek unga matolar yordamida ishlanadi.

Mozaika—turli tabiiy va ikqilamchi materiallar — rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi.

Vitraj—esa binolarning deraza, eshiq oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rinadi (3-rasm).

Miniatyura - (mo'jaz) rangtasviri deyilganda bejirim, juda kichik jajji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezaq zarhal harf, illyustratsiyalardan iborat bo'lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movarounnahrda katta

shuhrat qozongan. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki turli quticha, tomosha qovoq kabilarni bezatishda hamkeng qo'llanilmoqda. Shuningdek bu tur mustaqil san'at sifatida yildan-yilga ommalashib bormoqda.

Dekorativ Rangtasvir-asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u binolarning ichki va tashqi devorlarini bezatishga keng qo'llaniladi. Ular panno shaklida, shuningdek quticha, patnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar, namoyon kabi mayda elementlar ham dekorativ rang tasvirga kiradi.

Teatr dekorativ – Rang tasviri spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan grim, sahna jihozlari bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq. Singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnaning yoritilishi va ranglarga alohida e'tibor qaratadilar. Spektakl bezaklari unda ifodalangan voqea sodir bo'layotgan joy, davr, muhit to'g'risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishi osonlashtiradi va faollashtiradi.

Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlatiladi. Akademik Rang tasvir asosan o'quv jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali rangtasvir ishlarini nazarda tutadi.

Haykaltaroshlik - ham xuddi rangtasvir kabi hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi.

Haykaltaroshlikda tosh, metall, gips, yog'och, vosk (mum), sim kabi materiallar keng qo'llaniladi. Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali bajariladi.

Haykallarning asosan ikki turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi toliq, yumaloq, haykallar, ikkinchisi esa relefli—burtma haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomondan ko'rish mumkin bo'lsa, relefli haykallarni faqat bir tomondan, ya'ni oldindan ko'rish kerak bo'ladi. Relefli haykallar tekislik ustiga ishlanib, yuzadan qisman bo'rtib chiqqan bo'ladi. Relefli haykallarning ikki xili bo'ladi:

1. Barelefda tasvir qalinligining yarmidan kam bo'rtib chiqqan bo'ladi.
2. Gorelefda esa bu qalinlikning yarmidan ko'progi bo'rtib turadi.

Haykaltaroshlikda ma'lum miqdorda rangdan ham foydalaniladi. So`nggi yillarda asarlari mumi (vosk)dan haykallar ishlash texnikasi qo`llanila boshlandi. Bunda rangli mumlardan keng foydalanilmoqda. Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik dekiragip na abstrakt yo`nalishlarda bo`ladi.

Realistik haykallarda odam, hayvon va boshqa tasvir ob`ektlari haqiqiy ko`rinishda ifodalansa, dekorativ haykalarda ular stillashgan, ya'ni shakl, o`lchov, proporsiya va boshqa jihatlardan ma`lum darajada o`zgartirilib ifodalanadi. Abstrakt Haykallardagi ob`ektlarlar shakl, mazmun, o`lchov va boshqa jihatlardan mavhumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Haykaltaroshlar o`z faoliyatlarida ish quroli sifatida quyidagi asboblardan foydalanadilar. Maxsus dastgoh bolg`a, bolta, steq sirkul, iskana va boshqalar. Iskanalarning tug`ri burchakli, uchburchaqli, trapetsiya burchaqli, chuqur shakl beruvchi yoysimon turlari bo`ladi. Shuningdek Haykal loyi ustidagi ortiqcha qismini tortib olish uchun qattiq metallardan tayyorlangan doira, ellips, uchburchaq, to`rtburchaq, trapetsiya shaklidagi sidirgichlar qo`llaniladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, Haykaltaroshlikda qo`llaniladigan iskanalar turli o`lchovda, tuzilishga va shaklda bo`ladi. Haykaltaroshlikning dastgohli, monumental, yodgorlik (memo- rial), dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud.

Dastgohli haykaltaroshlik -iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga o`rnatib ishlanganligidan kelib chiqqan. Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, ular jamoat binolari va uy-joylarning ichki qismi, shuningdek istirohat bog`lari, muzey va ko`rgazma zallariga mo`ljallab yaratiladi. Dastgohli haykallarning o`ziga xos xususiyatlaridan yana biri, ularda tasvirlanayotgan obyektlarning haqqoniy, ya'ni hayotdagi o`lchamda yoki undan kichik bo`lishligidadir.

Dasttohti haykaltaroshlik asarlari yaqindan ko`rishga mo`ljallangan bo`lib, unda portret asosiy o`rinni egallaydi. Haykaltaroshlikda timsolning faqat bosh qismi va yelkasi tasvirlanganda, bunday asar byust deyiladi. Agarda odam bo`yi-basti bilan tasvirlansa, bu figurali portret deb yuritiladi. Shuningdek yarim figurali portretlar ham bo`ladi.

Mahobatli haykaltaroshlik iborasi monumental, ya'ni yiriq mahobatli haykal ma'nosini anglatadi. Ular maydon va ko'chalarga keng xalq ommasi uchun mo'ljallab o'rnatiladi. Bunday haykallar tarixiy voqealar yoki alohida mashhur shaxslarning nomlarini abadiylashtirish maqsadida o'rnatiladi. Monumental haykallar o'zoqdan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib umumlashtirilgan tarzda atrof-muhit bilan bog'liq holda yaratiladi. Monumental haykaltaroshlikning alohida yo'nalishlaridan biri—bu monumental-dekorativ haykaltaroshlikdir. Bu yo'nalishdagi asarlar ham monumental haykaltaroshlik asarlari kabi keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan bo'lsada, ko'proq bezak vazifasini bajaradi.

Mahobatli — dekorativ haykallar ko'cha va maydonlarni, bino va istirohat bog'larini, fontanlarni bezatishda ishlatiladi. Ularda odam, hayvon, baliq, va qushlar tasviri ifodalanadi. Bunday haykallar yirik o'lchamda bo'lganligi sababli, ularni bemalol o'zoqdan ko'rish mumkin. Mahobatli asarlarning umumiy o'lchami, hajmi, proportsiyalari tevarak-atrof, tabiat va binolarga moslab ishlanadi.

Mahobatli-dekorativ haykallar garchi mahobatli bo'lsa-da, ular ham to'liq hajmli va relefli qilib ishlanishi mumkin.

Plastik haykaltaroshlik — haykaltaroshlikning bir turi sifatida monumental haykallarda, yodgorlik haykallarda, shuningdek binolarning ichki va tashqi bezak ishlarida keng qo'llaniladi. Ular o'lcham jihatdan kichik bo'lib, mustaqil amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Maxsus loydan ishlanadigan kichik o'lchamdagi o'yinchoq haykalchalar ham plastik dekorativ haykallar hisoblanadi. Ularni ba'zan mayda plastika deb ham atashadi. O'zbekistonda haykaltaroshlikning bu turida usta kulollardan H.Raximova, U. Juraqulov, A. Muxtorov kabi xalq, kulol ustalari samarali mehnat qilganlar.

Dekorativ haykaltaroshlikning yana bir turi borki, ular kichik o'lchamdagi metall, marmar, yog'och, suyaq chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular ham dekorativ, ham realistik tarzda ishlanishi mumkin. Bunday haykallar kitob javonlari, yozuv stollarini bezatadi.

Grafika. "Grafika" — lotincha soʻz boʻlib, "yozaman, chizaman" degan maʼnoni bildiradi va tasviriyl sanʼatning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir. "Gravyura" frantsuzcha soʻz boʻlib, "kesish" maʼnosini bildiradi. Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, yogʻoch, linoleum, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qogʻozga koʻp tirajda koʻchiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yogʻochdagisini ksilografiya, lenoliumdagisini linogavyura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi. Grafika asarlarining qoʻllanish sohalari nihoyatda kengdir. Xususan, estamp, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, (hajviy rasmlar) estetika va oʻrama (upakovka)lar, teatr va kino afishalari, yoʻl va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidandir.

Kitob grafikasining ilk vatani Sharq hisoblanadi. XV - XVII asrlarda bu sohada Sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Moʻzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy, Sultom Muhammad, Qosim Ali, Abdullo kabilar shuhrat qozongan boʻlsalar, XX asrda Oʻzbekistonda I.Ikromov, V.Kedrin, O.Osheyko, Q.Basharov, T.Muhammedov, I.Kriakidilar sermahsul ijod qildilar.


Grafikaning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri bu - uning katta oʻlchamda boʻlmasligi va boʻyoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuniig uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq, yoki toʻq rangli tasvir ishtirok etadi. Baʼzan grafik tasvirlar ham rangli boʻladi.

Ayrim grafika asardari katta oʻlchamda va koʻp nusxada tayyordanadi hamda katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Bu plakatlardir.

Grafika sanʼatida estamn hamkatta oʻrinni egallaydi. "Estamp" Fraitsoʻzcha soʻz boʻlib, "shtamplash" maʼnosini bildiradi. Estamp yaratish uchun avvalo tasvir maxsus asboblilar bilan qattiq, materialga (tosh, yogʻoch, linoleum) oʻyish orqali tushiriladi. Soʻngra oʻyilgan material ustiga boʻyoq, beriladi va undam qogʻozga tasvir olinadi.




T. Jamoliddinov
“Q. Muhammadiy she’riyati”



A. G‘ulomov
“Zar kokilli yigit”

Tasviriy san’atning janrlari

Portret - rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo’lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san’at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini xamda tasvirdagi kishining ruxiyatini asarda talqin etadi.



Abdulhaq Abdullayev, Usta Shirin Murodov portreti.

Avtoportret - portryet janrining ko'rinishlaridan biri bo'lib, musavvir o'zining tashqi qiyofasini o'zi tasvirlaydi.

Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar xaqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqyealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari xam ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda muxiridirlar. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboyevning "O'zbekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'm", N.Kashinaning "Tog'da baxor",

Z.Inolomovning “Arpa o’rimi”, “Choyga”, R.Tyemurovning “Bibixonimda baxor”, “Ulug’byek madrasasi” asarlari mualliflarga shuxrat kyeltirdi.

Natyurmort - frantsuzcha so’z bo’lib, “jonsiz tabiat” dyegan ma’noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o’rab turgan atrof muxitdagi narsalar, turmushda qo’llaniladigan buyumlar, oziq-ovqat maxsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o’z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqiea qaysi davrda g’oya berayotganligini ham ko’rsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan R.Axmyedov, L.Salimjonova, o’.Abduraxmonov va boshqalar natyurmort janrida barakali ijod qilmoqdalar.



Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o’tmishda bo’lib o’tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko’rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir

Botal janr - “botal” frantsuzcha so’z bo’lib, “jang”, “urush” ma’nosini bildiradi. U jang manzaralarini o’zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o’rinni egallaydi. Botalist - rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qaxramonligi, mardligi, jasorati hamda o’z ona Vataniga bo’lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B.Gryekov, G.K.Savitskiy, A.A.Dyeynyeka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor

M.Nabiyevning “Spitamyen qo’zg’oloni”, musavvir R.Rizamuxammyedovning “Muqanna qo’zg’oloni”, musavvir T.Sodiqovning “Tumarisning qasosi” nomli asarlari bunga yorqin misol bo’la oladi.

Animalistik janr-o’zgacha tasviry san’at turidir.U lotincha “anima”, “hayvonot olami” degan ma’noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo’r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.



Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo’lgan. o’sha davrda ular g’orlarining devorlariga kiyik, qutos, mamontlarning suratlarini chizganlar.

Qadimgi Yaponiya va Xitoyda xayvonlarning tasvirlari dyekorativ naqshlar tuzishda hamda monumyental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Lyeonardo da Vinchi va A.Dyuryerlar ishladilar.

Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin o’zining asarlarida to’rt oyoqli dustlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Maishiy janr: tasviriyy san’atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqyealarni o’zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari - Pityer dye Xox, Ostadye, Styen, Tyerborx, Vermyer kabilar ijodida namoyon bo’ladi. Realist rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Savitskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta xissa qushdilar. o’zbek rassomlaridan R.Axmedov, M.Saidov, Z.Inog’omov, R.CHoriyev, O’.Abduraxmonovlar ham shu janrda barakali ijod etmoqdalar.

Manzara janri.

Tasviriy san'atning boshqa janrlari bilan bir qatorda manzara janri ham o'zining go'zalligi,serqirraliligi,mukammalligi bilan o'zgacha ko'rinish kasb etadi.Tasviriy san'atda tabiat, shahar industerial-sanoat, inter`yer ko`rinishlarning tasvirlanishi manzara janriga ta'luqlidir. Manzara janridagi asar- larning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya'ni hayotiy ko`rinishini tasvirlasa, boshqalarda borliq ijodiy tarzda, hayolan ifodalangan bo`ladi. Ba'zan bu ikki hol bir asarda ko`zatilishi ham mumkin. Manzara janrining paydo bo`lishi juda o`zoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarning keng tarqalishning qadimgi Sharq va Krit orollardagi, qadimgi arxeologik qazilmalari misolida ko`rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Hasandagi qabr toshda yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri mustaqil ravishda Xitoyda VI asrda paydo bo`lgan bo`lsa Yevropa san'atida Uyg'onish davrida ilmiy negizda, ya'ni chiziqli va havo (rang) perspektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud. Birinchi turida mustaqil manzara aks ettiriladi,ikkinchi turida esa manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning orqa tomonoda tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga manzur bo`lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O`.Tansiqboyev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni alohida tilga olish mumkin.

Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu inter`er hisoblanadi. Inter`er binolarning ichki qismi ko`rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi misrliklar va xitoliklar o`z ishlarida inter`erni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto, A. Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrantlar shuhrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko`rinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan dengiz ko`rinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi. Dengiz janrining shakllanishida, I. Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo`lgan. Bu ulug` rassom o`zi- ning umrini faqat dengiz ko`rinishlarini tasvirlashga bag`ishladi. Uning “To`qqi- zinchi val”, “Chesmen jangi”, “Qora dengiz”, “To`lqinlar orasida” kabi asarlari ja- hon tasviriy san`atida munosib o`rinni egallaydi. Manzara janri ko`proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo`llaniladi. Tasviriy san`atda, ayniqsa, rangtasvirda rangning roli benihoya kattadir. U asarning mazmuni va g`oyasining to`la ochilishiga uning tomoshabinga emot sional hissiy ta`sirini kuchaytirishga, shuningdek, kompazitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. I. Ayvazovskiy o`z asarlarida tabiatning eng chiroyli hamda kezi kelganida eng sovuq ranglaridan o`z asarlarida mahorat bilan foydalana olganligi tahsinga loyiqdir.



I. Ayvazovskiy “Chesmenskiy jangi” asari.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar.

Manzara-janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar xaqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari xam ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda moxirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboyevning "O'zbyekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da baxor", Z.Inog'omovning "Arpa o'rimi", "Choyga", R.Temurovning "Bibixonimda baxor", "Ulug'byek madrasasi" asarlari mualliflarga shuxrat keltirdi.

Manzara janrida yaratilgan asarlar o'zi bilan chuqur his- tuyg'ularni saqlab qolish hamda tarixiy ruhni tasvirlash imkoniyatiga ega.


Ayniqsa, qadimga Rim, Gretsiya hamda sharq rassomlari o'z asarlari orqali makon va zanonni ,shu davrda mamlakatning joylashuv reylefini o'z manzaralari orqali mahorat bilan tasvirlaganlar.O'qta asrlarga kelib esa,manzara yo'nalishida chizilgan asarlar bilan ibodatxonalar, saroylar hamda boylaning uyini bezatish urf bo'lgan.Yevropada mabzara janri XVII asrda tamoman shakllangan bo'lib, uning gullab yashnagan davri XVII asr oxiri XVIII asr boshlariga to'g'ri keladi.

Sharqda manzara janri o'ziga xos tarzda shakllandi,Xitoy rassomchiligada ushbu janr VI asrda butunlay mustaqil tarzda ajralib chiqdi. Xitoy rassomlari o'z asalarini tush vositasida ipak matolarga g'oyat nafis chizgilar bilan tasvilar edilar.Ular ijodidan asosan, yuksak tog'lar tasviri ,cheksiz fazo yoki suvning nafis chizgilari, tuman og'ushidagi tabiat ko'rinishlari o'rin egallagan.Ushbu asarlar o'zida yuksak falsafiy ma'no kasb etardi.Xitoy manzaralarida ba'zan inson qomati turli timsollar orqali ham tasvirlangan.Ms: tog' qarag'ayi, yovvoyi olxo'ri daraxti va boshqalar. Xitoy manzarachiligi o'zining ta'sirchanligi va ma'naviy mazmunining kuchliligi bilan ajralib tursa , Yapon rassomchiligida manzara janri o'zida inson kayfiyatini tabiat go'zalliklari orqali tasvirlanishi bilan farqlanadi. Yapon

rassomlari chizgan manzaralarda turli yil fasllari har xil iqlimiy sharoitlar, quyoshning zarrin nurlari, oyning ma'sum nur sochishi tasvirlari orqali inson his-tuyg'lari, o'sha vaqtdagi kayfiyat va ichki kechinmalardan xabar berayotgandek bo'ladi.

Manzara janrining yo'nalishlari.

1.Qishloq manzarasi-bunda tasvirlanayotgan qishloq hayotining atrof muhit va tabiat bilan aloqasi insonni o'ziga tortadi.



2.Shahar manzarasi–ushbu yo’nalish o’z nomi bilan aytib turibdiki, unda asosan sun’iy ko’llar, binolar ,keng va tor ko’chalar,maydonlar ,qirg’oq muhiti va boshqalar tasvirlanadi.

3.Dengizga oid manzara-bu tur yana bir nom bilan ham ataladi, ya’ni marina janri. Marina bu so’z italyancha marina yoki lotincha marinus dengiz so’zidan olingan.Bu turda dengizning to’lqinlanishi, oy shu’lasidagi dengiz ko’rinishlari, suvda bo’lgan jang tavsilotlari tasvirlanadi. Marina janri XVII asrlarda Gollandiyada shakllandi. Dengizni tasvirlovchi rassomlarni esa marinistlar deb atashardi.

4.Me’moriy manzara- unda me’moriy yodgorliklar, qadimimiy shaharlar ko’rinishi atrof muhit va tabiat bilan umumlashgan holda ko’rsatiladi.

5.Qurilish manzarasi-bunda zavod va fabrikalar, inson qo’li bilan yaratilgan tog’on, ko’prik, vokzal, temir yo’llar va boshqa inshootlar tasvirlanadi.

6.Qahramonlik manzarasi- bu tur manzaraga har qaysi rassom o’zicha mazmun beradi.Bu shunday janrki, unda yuksak, baland tog’lar, kuchli savlatli daraxtlar,suvning vazmin silliq yuzasi bilan bir muhitda mifologik qahramonlar va xudolar tasvirlanadi.

7.Bezakli manzara- bunda binolarning me’moriy yaxlitligini to’ldirish uchun devorlarga bezaklar chiziladi.

8.Tarixiy manzara- bunda tarixiy voqealar, qadimiy yodgorliklar tasvirlanadi.



9. Epik manzara- tabiatning ichki jo'shqinliklari, ba'zan o'ta sokin kayfiyatda tasvirlanishi ushbu janrga xosdir.

10. Romantik manzara janri-ushbu janrda tabiatning eng nozik lahzalari, ms: quyoshning botishi, shamolning beboshliklari, bulutlar orasidagi momaqaldiroq sadolari tasvirlanadi.

Tabiat-bu donishmandlik kitobidir. Mana shu kitobni o'qib chiqmoq, undagi qimmatbaho boylikka ega chiqmoq uchun bizga albatta manzara janri kalit bo'la oladi.

Manzara o'ziga xos murakkabliklarga ega hisoblanadi. Manzara chizish jarayonini boshlash o'quvchi oldiga qator vazifalarni qo'yadiva bu vazifalar o'quvchilarning yoshiga qarab turlicha bo'ladi. Men quyida e'tiboringizga yuqori sinf o'quvchilari manzara chizishda bilishi talab e'tiladigan turli bilim va ko'nikmalar bilan tanishtirib o'taman:

1. Atrof-muhit va tabiatni e'tibor bilan o'rganish, ko'rish bilan bir qatorda tabiat go'zalligini anglash.

2. Tabiat bir qatorda tasviriyl obrazni yaratish orqali o'z kayfiyatini tasvirlash.

3. Chizgan manzarasi orqali tabiatdagi yil faslini ko'rsata olish, shu bilan bir qatord kunning qaysi qismi ekanligini va ob-havoni tog'ri tasvirlash.

4. Manzara janrida ijod qilishdan oldin uning turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.

5. Manzarana vis rassomlar ijodi bilan tanishish. Ular chizgan asarlar ma'nosini tahlil qilish.

6. Bu borada o'rgangan barcha nazariyl bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish.



2.2.MANZARA ISHLASH JARAYONIDA PERSPEKTIVA QONUNIYATINING AHAMIYATI.

“Perspektiva”- soʻzi lotincha soʻzdan olingan boʻlib, “aniq koʻrayapman” degan maʼnoni anglatadi. Maʼlumki, perspektiva tasviriy sanʼatning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi va u aloxida fan sifatida shakllangan. Perspektiva borliqdagi narsa va hodisalarni koʻrib idrok etishga mos holda tasvirlash qonuniyatlarini oʻrganadi. Perspektivaning uch xili mavjud: 1. Chiziqli perspektiva; 2. Rang (havo) perspektivasi; 3. Hajm perspektivasi.

Chiziqli perspektivada turli xil uzoqlikdagi narsalarning oʻlchamlari qisqarib koʻrinadi. Rang (havo)perspektivasida esa bu predmetlarning ranglari oʻzgaradi. Hajm perspektivasida esa narsalarning hajm aniqligi va chegaralari xiralashadi.



Chiziqli perspektivaning asosiy qonunlari quyidagilardan iborat:

— predmetlar kishi koʻzidan uzoqlashgan sari eniga ham, buyiga ham kichiklashgandek koʻrinadi, oxirida nuqtaga aylangandek tuyuladi;

— predmetlardagi vertikal qirra Chiziqlar kishi koʻzidan uzoqlashgan sari oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmaydi va oʻzaro kesishmaydi.

— Ufq chiziqdan pastda joylashgan buyumlarning perspektivadagi tik (gorizontal) Chiziqdari yuqoriga yo`nalsa, yuqorida joylashganlarniki esa pastga yo`nalgan bo`ladi

Frontal perspektivada birgina, burchakli perspektivada ikki kesishish nuqtasi bo`ladi. Burchakli perspektiva hodisalari qirrali to`rt yoqli predmetlarda ko`zga yaqqol tashlanadi. Xususan, quti, yashik jomadon, stol, shkaf va hokazolarda bu holni kuzatish mumkin. Ular kuzatuvchiga burchak ostida turganda ularning ikki yon tomonidagi parallel qirra-chiziq1ar ufq chizig`ining ikki nuqtasida kesishadilar. Burchakli perspektivadagi kesishish nuqtasi ayrim hollarda suvrat tekisligidan chetga chiqib ketishi ham mumkin. Yuqorida qayd qilganimizdek har qanday mazmunli rasmlar ufq chizig`i bilan bog`liq bo`ladi. Ufq chizig`i geografiyada katta kenglikdagi joyda yer bilan osmonni ajratib turuvchi chiziq deb qaralsa, rassomchilikda kuzatuvchi yoqi rasm chizuvchining ko`zi balandligida tasavvur etiladigan (haqiqatda u bo`lmaydi) tik (gorizontal) suvrat tekisligiga yondosh (parallel) chiziqdir. Kuzatuvchi yoqi rassom pasaysa ufq chizig`i ham gasayadi, ko`tarilsa ufq chizig`i ham ko`tariladi. Rang perspektivasi borliqdagi barcha narsalar kishi ko`zidan uzoqlashgan sari o`z rangini o`zgartirishi haqida tushunchalar beradi. Bir xil rang, tus va to`yingan rangdagi buyumlar bizga yaqinlashgan sari rangdor va yorqin ko`rina boshlaydi. Yaxshi e`tibor berilsa, haqiqatda rangi, tusi, to`yimliligi bir xil bo`lgan daraxtlarning ranglari bizga nisbatan turlicha masofada turlicha ko`rinadi. Ular eng uzoq, masofada esa kulrangsimon, havorangsimon tusli bo`lib idrok etiladi. Masalan, tongdagi oqrangli qor soyada zangori tusda ko`rinadi. Buning sababi narsalar rangiga havo qatlamidagi chang, namlik bug` zarralari va osmon rangining, yer va atrofdagi narsalarning ta`sirlaridir. Narsalar bilan kuzatuvchi o`rtasidagi masofa qanchalik uzoqlashsa havo qatlami ham shunchatik qalinlashadi va ular kuzatuvchiga kelayotgan nurlarni ushlab qoladi. Natijada narsa ranglari o`z to`yimliligini yo`qotadi.

Chiziqli perspektiva hodisalarini ko`proq simdan yasalgan geometrik shakllarni namoyish etish, tabiatni ko`rgazmali qurollar yordamida bevosita kuzatish orqali

idrok etish samaralidir. Shuningdek chiziqli perspektiva hodisalarini san'at asarlarini kuzatish, geometrik shakldagi narsalar (kub, prizma va boshkalar) rasmini chizish orqali ham o'rgansa bo'ladi. Rang perspektivasi hodisasini ranglarni aralashtirish orqali ham tushuntirish mumkin.

Hajm perspektivasi ham rassomlar faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Yuqorida ranglar perspektivasi haqida fikr yuritganimizda, havoda mavjud bo'lgan turli chang zarrachalarining borliq bilan kuzatuvchi orasidagi narsalar hajmiga ta'sir ko'rsatishini aytgan edik. Ular oq tusli narsalarni to'qlashtiradi, to'q tusdagilarini ochlashtiradi. Natijada narsatarning soyalari o'rtasidagi kontrastlik yo'qoladi, ularning qirralaridagi aniqlik buziladi, hajmli narsalar tekis ko'rinadi. Bu hodisa hajm perspektivasi deb yuritiladi.

Biror mavzu asosida rasm chizish jarayonida kompozitsiyani to'g'ri tashkil etish uchun, avvalo, rassom rasmni ufq chizig'idan boshlashi o'ta muhimdir. Ufqni osmon bilan yerni ajratib turuvchi chiziq; sifatida qarash kerak. Ufq chizig'ini tasvirlanadigan ob'ekt mazmunidan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiqdir. Ufq chizig'ini qog'oz betiga uch xil joylashtirish mumkin. Birinchisida ufq chizig'i qog'oz yuzasining yuqorisidan, ikkinchisida pastidan, uchinchisida esa uning o'rtasidan o'tgan bo'ladi. Rassom yuqori ufq chizig'ini keng manzara yoki katta ob'ektni aks ettirmoqchi bo'lgan taqdirdagina tanlaydi. Shuningdek rassomlar kishilar tasvirini yer fonida yaxshi ko'rsatish maqsadida mana shunday ufq chizig'ini tanlaydilar. Ikkinchi holda ufq chizig'i qog'oz yuzasining pastki qismida o'tkazilishi rassomning osmondagi yoki yuqoridagi narsa yoxud harakatni ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Ufq Chizig'ini "Fazoga parvoz", "Kuzgi daraxtlar", "Turnatar uchib keldi" kabi mavzularda rasm chizganda pastdan olinsa to'g'ri bo'ladi.

Perspektivaga oid uchinchi holda ufq chizig'i daftar yuzasining O'rtasidan o'tkaziladi. Rassomning ufq chizig'ini bunday olishining Sababi tomoshabinga suvratning yuqori qismi bilan pastki qismidagi detallar muvozanatini saqlagan holda taqdim etish istagi bilan bog'liqdir.

Shuningdeq ufq chizig'i rassomning g'oyasi, suvrat mazmuni va komnozitsiyasi bilan ham muvofiq bo'lishi lozim. Agar rasmda uylar yoki daraxtlar tasvirlangan bo'lsa, osmon ancha yengil, pastki qismi og'ir bo'lib ko'rinadi. Perspektiv qisqarishni qog'oz betida tasvirlashda esa quyidagi qoidaga amal qilmoq darkor:

Birinchidan, kuzatuvchiga yaqqol ko'ringan buyum yoki jonli zotlar qog'oz betining pastki qismiga chiziladi. Kuzatuvchiga nisbatan juda uzoqda ham, yaqinda ham joylashmagan ob'ektlar qog'oz betining o'rtasida tasvirlanadi. Rasmda hayvon, qush, daraxt va uylar rasmini tasvirlashda ularning o'lchamini odamning o'lchamiga qarab belgilash lozim. Xuddi shu usulda har qanday narsatarning rasmini ifodalash mumkin

Tasviriy san'atning nazariy asoslarini yaxshi bilish, tasviriy asarni mukammal ishlay olishning eng muhim omillaridandir.

Tasviriy san'at asarini yaratishda narsalar tuzilishini hisobga olish ham nihoyatda muhim bo'lib, uningsiz professional ishlangan tasvir bo'lishi mumkin emas. Ma'lumki, tasvirlangan barcha, jonli va jonsiz narsalarning o'ziga xos tuzilishi (konstruktsiyasi) bo'ladi. Ularning asosida narsa va buyum u yoki bu geometrik shakl (kub, prizma, konus, piramida, shar va xokazo) yoki ularning aralashuvidan hosil bo'lgan murakkab shakllar yotadi. Mavjudotlar yoki ularning tasvirida u yoki bu geometrik shakl ko'zga yaqqol tashlansa, boshqasida u butunlay sezilmasligi mumkin.

Shuni ham hisobga olish kerakki, xar bir narsa (predmetlar, qushlar, hayvonlar, odamlar) nafaqat o'z tuzilishiga balki shakliga ham ega. Ular shu jixatlari bilan ham bir-birlaridan farq qiladi. Tasvirda ularning tuzilishi va shakllari to'g'ri aks ettirilmasa, rasm tasvirlanayotgan ob'ektga o'xshamay qolishi mumkin. Natijada tasvir tomoshabinda yaxshi taassurot qoldirmaydi.

Shuning uchun ham rassomlikka o'rgatishning dastlabki bosqichlarida geometrik shakllarni tasvirlashga atohida e'tibor beriladi. Natijada oddiy narsalarning rasmini haqqoniy va real qilib ishlash ancha yengillashadi. Keyinchalik murakkab tuzilish va shakldagi narsalar rasmini ishlashga o'tiladi. Narsalarni geometrik shakllar asosida chizish perspektiva hodisalarini to'g'ri tasvirlashga ham yordam beradi.

Ma'lumki, borliqdagi har bir mavjudot o'z o'lchami va proportsiyalariga ham ega bo'lib, bu proportsiyalar narsalarning shakllari va tuzilishi bilan uzviy bog'iq bo'ladi. Mavjudotlarning proportsiyalari ularning o'lchamlaridagi nisbatlarni nazarda tutadi. Bunda mavjudotlarning eni, bo'yi, qalinligi, balandligi kabilarning bir-birlariga nisbatan katta yoki kichiqiligi nazarda tutiladi. Aytaylik aniq biron narsaning rasmi ishlanganda, ularning o'lchamlaridagi proportsiyalar nisbati to'g'ri olinmasa, uning o'ziga xos xarakterli ko'rinishi rasmda noto'g'ri ifodatanadi. Natijada terakning rasmi o'riknikiga, qovunning rasmi esa tarvuz ko'rinishiga o'xshab qoladi.

Xullas, har qanday buyum yoki jonli va jonsiz mavjudot rasmini chizganda ularning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchamlari va o'lcham nisbatlari (proportsiyalari) albatta inobatga olinishi lozim.



2.3. Umumta'lim maktablarida manzara ishlash metodikasi.

Ushbu metodda manzara chizish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'li ko'rsatilgan:



1. Ishni o'z asringizda tasvirlamoqchi bo'lgan tabiat manzarasini tanlashdan boshlang. So'ngra bu manzarani yanada to'liq va chiroyli chizish mumkin bo'lgan biror qulay joyni topib, kerakli anjomlaringizni tayyorlang.

2. Manzara janridagi asarlar asosan tabiat qo'ynida chiziladi. Lekin shunday sharoitlar yuzaga keladiki, unda siz asarni uyda chizishingiz kerak. Bunday vaziyatda sizga etyudlar yordam beradi.

Etyud- bu chizilayotgan asar elementlarining oldindan chizib olingan eskizlari (o'sha yerdagi gullar, turli o'simliklar, osmon, daraxt va binolar, suvning turlicha ko'rinishlari bo'lishi mumkin). Mana shu tayyor etyudlarni birgalikda chizgan holda siz uyda ham manzara yaratishingiz mumkin.

3. Surat chizishni boshlashdan avval toza qog'oz yuzasini oddiy qalam yordamida ikki qismga gorizontal tarzda ajratib olamiz: osmon hamda yer yuzasi. Ushbu ikki qismni ajratib turuvchi chiziq- ufq chizig'i deb ataladi. Osmon, bulutlar, quyosh ufq chizig'idan yuqorida, yer yuzasida joylashuvchi narsa-buyumlar, o'simliklar esa ufq chizig'idan pastda joylashtiriladi.



4. Suratni chizish qalam bilan uning xomaki chizmasini chizib olishdan boshlanadi. Qalam chizgilari o'ta yengil tarzda chizilgan bo'lishi va unda faqatgina asarning eng asosiy detallari tasvirlanishi kerak.



5. Manzara janrida ijod qilayotga har bir havaskor yoki mohir rassom doimo perspektiva qonuniyatlariga amal qilishi shart hisoblanadi.

6. Asarni bo'yash jarayoni. Bu suratni yakunlovchi eng asosiy jarayon hisoblanib unda eng muhimi ranglarni to'g'ri tanlay olish, qo'llash va kerak bo'lganida yangi rang hosil qila olish muhim hisoblanadi.



7.Ishning so'ngida asaringizda soya hamda quyosh nuri tushayotgan joylarni yanada aniq qilib kerakli ranglar yordamida tasvirlang.Buning natijasida asar yanada tabiiy va jozibali chiqadi.

UMUMIY XULOSA

Bugungi talaba, bo`lajak pedagog, o`zbek xalqining hamda o`tmishi bor bo`lgan Markaziy Osiyo xalqlarning amaliy va tasviriy san`at borasidagi noyob namunalarini o`zlashtirgan bo`lishi va to`laligicha o`quvchi yoshlarga ulashmog`i ayni davr talabidir. Shu sababli bo`lajak rassom-pedagoglarga quyidagi talablar yuklanadi :

-O`zlari ta`lim berishi lozim bo`lgan o`smir va yoshlarga san`at sirlarini, madaniy meros namunalarini har tomonlama o`rgatish;

-Ayni yangilanish, rivojlanish davrida yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan, yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun ma`sul shaxslar qilib tarbiyalash;

-Ulug`vor bunyodkorlik ishida malakali, g`ayratli o`qituvchilar yoshlar peshqadamlik qilmoqlari uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash ;

-Talabalarni tasviriy san`at yo`nalishi buyicha ijodkorlikka yetaklash, layoqat sezilganda esa astoydil o`rgatish uchun maxsus maktab yoki to`garaklarga jalb etish :

-O`quvchi va yoshlarga nafis san`at sirlarini o`rgatish borasida o`z ustida doimo izlanish, talabalar faoliyatini rivojlantirib, to`g`ri va asosli shakllantirish uchun pedagogik qoidalar asosida tajribalar olib borish :

- Turli davr, turli xalqlarga mansub tasviriy san`at asarlarini mushohada qila olmog`i va uni tushunish sirlarini yoshlarga ulashish uslublariga ega bo`lish:

Tasviriy san`at insonni shakllantirishdagi muhim va ishonchli vositalardandir, bunday imkoniyatni xar bir mashg`ulotda qo`llash uchun yangicha uslub va mumkin bo`lgan usullarini ishga solish hamda amalda qo`llay olish mahoratini o`rgatish :

Zamon talabi bilan dars va mashg`ulotlarni noan`anaviy dars rejalari bilan o`tkazish :

Jahon andozalariga xos yangi texnologiyalarini o`rganib, darsda qo`llay olish mahoratini egallashi kerak.

Yuqorida zikr etilgan talablarni o`zida mujassam etgan har qanday talabaga kelajak avlodimizni ishonib topshirsak bo`ladi.

Tasviriy san`at muallimi – ilmiy izlanuvchan ijodkor. Rassom o`qituvchilar

qayerda, qanday o`quv maskanida ta`lim jarayonini olib borishidan qat`iy nazar pedagogik faoliyati ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllanitirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Tasviriy va amaliy san`at o`qituvchisining o`z sohasidagi savodxonligi yetarli darajada bo`lsagina o`quvchilar bilan yonma-yon o`tirib o`zlari amaliy namuna ko`rsata oladilar. O`shandagina o`quvchilar o`z ko`zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko`rib ruhan his qiladi hamda san`atning nozik sirlarini tushunib yetishishiga imkoniyatlari kengayadi.

Tasviriy san`at mashg`ulotlari har tomonlama rivojlangan insonning tarbiyalashi uchun boy imkoniyatlar ochib beradi. Tasviriy san`at bilan shug`ullanish bolalarning aqliy va estetik jihatdan rivojlantiradi, atrof dunyoni tushunishiga ko`maklashadi, buyumlarni e`tibor bilan kuzatishga, ularning shaklini tahlil qilishga o`rgatadi. Tasviriy san`atdan savodni chiqarmasdan turib, kishi san`atni tushunishi ham, qadrlashi ham, undan huzur qilishni ham bila olmaydi. Bolalar tarbiyasida zamondoshlarimiz mehnatini go`zalligini ko`rsatishga, mustaqil davlat taraqqiyoti yutuqlarini o`rganish alohida o`rin egallaydi. Bu o`quvchilarning ijodiy aktivligini oshirishga ularning kuchini, ma`naviy quvvatini yangi hayot qurish uchun kurashga safarbar etishga ko`maklashadi.

Estetik tarbiya – bu o`quvchilarda hayotdagi, tabiatdagi, san`atdagi, fan va jamiyatdagi go`zalliklarni to`la-to`kis qabul qilish qobiliyatini tarbiyalashdir. Hayotdagi go`zal narsalar, aql, ruh, irodaga ta`sir qilib, insonning ruhiy olamini boyitadi.

«Tasviriy san`at » fani dasturi umumta`lim maktablari va o`rta maxsus, kasb-hunar kollejlarida tasviriy san`at tarkibidagi fanlarning mashg`ulotlarini to`g`ri tashkil qilish, o`quvchilarda shu fan bo`yicha puxta bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish uchun eng samarali metodik vositalarni tanlashda bo`lajak o`qituvchilarga yordam berish masalalarini qamrab oladi.

Jamiyatdagi zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ta`lim sohasida ham bo`layotgan inqilobiy o`zgarishlar mutaxassislarga yangi funksional talablarni qo`ya boshladi.

Endilikda malakali mutaxassisdan faqatgina o'zining bevosita xizmat vazifasini yaxshi bajarishgina emas, balki yangi uslublarni topib amaliyotga kiritish, mustaqil qaror qabul qila bilish va ijodiy ishlay olish kabi ko'nikmalar talab qilinadi va mutaxassis o'qitish metodlari va yo'llari bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishi, o'qitishning tub maqsadini tasavvur qila olishi, unga erishish yo'llari va vositalarini bilishi lozim. Talabalarning bu bilimlarni puxta egallashiga yordam berish "tasviriy san'at o'qitish metodikasi" kursining asosiy vazifalaridan biridir. Uning oldida pedagogika fani tarmog'i sifatida quyidagi vazifalar turadi:

Tasviriy san'at o'qitishning aniq maqsadlarini va uning fan sifatida bilim berish hamda tarbiyaviy ahamiyatlarini aniqlash;

O'qitishning mazmuni va tuzilishini aniqlash;

O'quvchilarning mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlovchi o'qitishning eng samarali uslub, vosita va shakllarini ishlab chiqish;

O'quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiq qilish.

Yuqorida zikr etilgan maqsad va vazifalarni hal qilishda o'qitishning zamonaviy interaktiv metodlari va axborot texnologiyalaridan o'z o'rnida unumli foydalanish ijobiy natija berishi bilan ahamiyatlidir.

Tasviriy san'at eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. Ajdodlarimiz dunyoqarashini shakllanishida tasviriy san'at muhim vazifalarni bajargan. Eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini, istaklarini va shuningdek, turli xatti-xarakatlarini chiziqlar, oddiy formalar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar.

Ibtidoiy odamlar ov kurollarini tasvirlash orkali ovga bormokchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buka va boshqa turli xayvonlarning oddiy primitive tasvirlari orkaliushaxayvonlarni ovlamokchi ekanliklarini bildirganlar. Xozirgi Uzbekiston xududidan xamana shunday ibtidoiy jamoa davri ga mansub unlab tasviriy koldiklar

topilgan. Butarixiy mukaddas yodgorlik xanuzgacha «Zarautsoy» nomi bilan atalib kelinmokda. Zarautsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish kadimgi odamlarning xayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam beradi. Ibtidoiy odamlar xayotida ovchilik asosiy mexnat turlaridan bo'lgan, shuning uchun insoniyat va xayvon ot urtasidagi kurash manzaralari kuplab uchraydi. Obrazlar va kiyofalar kanchalik sodda ko'rinishig aega bulishiga karamasdan tomoshabinda anik tasavvurni gavdalantiradi. Ana shu rasmdayok jiddiy obrazlar va fikrlar, shuningdek, turli-tuman mavzularuz ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- 1.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T., «Sharq», 1998y.
- 2.O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Barkamol avlod-Yzbekiston taraqqiyotining poydevori.T., 1998y.
3. Abdullayev A.A. san'at tarixi T. 1991.
- 4.Apuxtin O.K. Tasviriy san'at haqida suxbatlar T.1961.
- 5.Azimova B,Rajabov R, Abdirasilov S.
- 6.Tasviriy san'atga oid atashamarning izohli lug'ati T 1994.
- 7.Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T. 1991.
- 8.Bulatov S.S.Amaliy san'at qisqacha lug'oti. T. 1992.
- 9.Qosimov Q. Naqqoshlik T. 1982.
- 10.Majidov J. T. sia. Maktabdan tashqari ishlar. T. 1983.
- 11.Majidov J. Maktabda tasviriy san'at bo'yicha o'quv tarbiyaviy ishlarni tashkil etish T.1995.
- 12.Nabiyev M.N, Azimova B. Rasm chizishni o'rgatish metodikasi T. 1976.
- 13.Nabiyev M.N. Rangshunoslik T. 1995.
- 14.Oripov B.T. s. Darsning samaradorligini oshirish yo'llari T. 1983y.
- 15.Tem. N.D. Gips modellarining rasmi T."O'qituvchi"1994.
- 16.Hasanov R.X. Egamovlar. Tasviriy san'at darsliklari 1,2,3,4 sinflar.
- 17.Hasanov R.X. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. T. 1981.
- 18.Xudoyorova O. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan T. 1993.